



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

QARDOSH XALQLARNING BUYUK DO‘STLIGI

Ilhomjonov Lutfulla Sultanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, katta o‘qituvchi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada G‘afur G‘ulom hamda Sobit Muqonov o‘rtasidagi adabiy-madaniy aloqalar, samimiy do‘stlik rishtalari va ularning o‘zbek-qozoq xalqlari o‘rtasidagi birodarlik munosabatlarini mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada ikki ijodkorning o‘zaro ijodiy hamkorligi, adabiy merosi, xalqaro anjumanlar va madaniy uchrashuvlardagi faol ishtiroki asosida xalqlar do‘stligi g‘oyasining badiiy talqini yoritilgan. Shuningdek, Muxtor Avezov, Oybek va boshqa ijodkorlar bilan olib borilgan adabiy aloqalar misolida Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy yaqinlik masalalari ochib beriladi. Tadqiqotda G‘afur G‘ulom ijodida qozoq xalqining urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini va do‘stlik motivlarining badiiy ifodasi ham ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Maqola yakunida esa bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida o‘zbek-qozoq madaniy va adabiy aloqalarini rivojlantirishda ushbu ijodkorlarning tarixiy merosi muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘afur G‘ulom, Sobit Muqonov, o‘zbek-qozoq adabiy aloqalari, xalqlar do‘stligi, qardoshlik, madaniy hamkorlik, badiiy meros, adabiy munosabatlar, Markaziy Osiyo adabiyoti, ijodiy hamkorlik, milliy qadriyatlar, uy-muzeylar, madaniy diplomatiya.

ВЕЛИКАЯ ДРУЖБА БРАТСКИХ НАРОДОВ

Илхомжонов Лутфулла Султанович

Ташкентский государственный экономический университет, старший преподаватель (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются литературно-культурные связи и искренние дружеские отношения между Гафур Гулям и Собит Муканов, а также их роль в укреплении братских отношений между узбекским и казахским народами. На основе творческого сотрудничества двух деятелей, их литературного наследия, участия в международных конференциях и культурных встречах раскрывается художественное воплощение идеи дружбы народов. Кроме того, на примере литературных связей с такими выдающимися деятелями, как Мухтар Ауэзов и Ойбек, освещаются вопросы культурной близости народов Центральной Азии. В исследовании также научно анализируется художественное отражение казахских национальных традиций, ценностей и мотивов дружбы в творчестве Гафура Гуляма. В заключении обосновывается значимость исторического наследия этих писателей для дальнейшего развития узбекско-казахских культурных и литературных связей в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Гафур Гулям, Собит Муканов, узбекско-казахские литературные связи, дружба народов, братство, культурное сотрудничество, литературное наследие, литературные отношения, литература Центральной Азии, творческое сотрудничество, национальные ценности, дома-музеи, культурная дипломатия.

THE GREAT FRIENDSHIP OF BROTHERLY NATIONS

Ilhomjonov Lutfulla Sultanovich

Tashkent State University of Economics, Senior Lecturer (PhD)

Abstract

This article examines the literary and cultural relations as well as the sincere friendship between G‘afur G‘ulom and Sobit Muqonov, highlighting their contribution to strengthening the brotherly ties between the Uzbek and Kazakh peoples. The study explores the artistic interpretation of friendship among nations through the writers’ creative collaboration, literary heritage, participation in international conferences, and cultural events. Furthermore, the article discusses the cultural closeness of Central Asian peoples through literary connections with prominent figures such as Mukhtar Auevov and Oybek. Special attention is paid to the representation of Kazakh traditions, national values, and themes of friendship in G‘afur G‘ulom’s works. The article concludes that the historical and literary legacy of these writers plays an important role in the further development of Uzbek-Kazakh cultural and literary relations in the context of New Uzbekistan.

Keywords: G‘afur G‘ulom, Sobit Muqonov, Uzbek-Kazakh literary relations, friendship of peoples, brotherhood, cultural cooperation, literary heritage, literary relations, Central Asian literature, creative collaboration, national values, house museums, cultural diplomacy.

“O‘zbekiston va Qozog‘iston – nafaqat umumiy tarix, madaniyat, an‘analarga ega bo‘lgan yaxshi qo‘shnilar, balki o‘zaro ko‘p asrlik do‘stlik aloqalari bilan bog‘langan juda yaqin, qardosh davlatlardir. Xalqlarimizni ajralmas ma‘naviy va oilaviy rishtalar, intilishlar birlashtirib turadi, ular mushtarak quvonch va tashvishlar, orzu-umidlar bilan yashaydi” [1:288]. O‘zbekiston xalq shoiri, akademik G‘afur G‘ulom ijodida eng ko‘p tarannum etilgan mavzulardan biri bu – yer yuzidagi millatlarning birdamligi, totuvligi, osoyishtayu o‘zaro do‘stona munosabatlarining samimiy ifodasidir. Ammo buyuk shoir ushbu mavzularni o‘z asarlarida tarannum etish bilangina cheklanib qolmagan. Uning hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, adibning o‘zi ham bag‘rikeng va xalqlar do‘stligini nihoyatda hurmat qilgan shaxs ekanligini va bu tushunchalar umrining mazmunini tashkil etganini anglab yetamiz.

Buni biz ozarbayjonlik Samad Vurg‘un, turk shoiri Nozim Hikmat, turkmanistonlik Berdi Kerboboyev, tojikistonlik Mirzo Tursunzoda, Abulqosim Lohutiy, qirg‘izistonlik Ali To‘qqonboyev, Chingiz Aytmatov, qozog‘istonlik Muxtor Avezov, pokistonlik Fayz Ahmad Fayzlar o‘rtasidagi do‘stona adabiy aloqalarda ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, Qozog‘istonning mashhur yozuvchisi Sobit Muqonov va G‘afur G‘ulom o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, qardoshlik tuyg‘ulari hamda o‘zaro do‘stona munosabatlari tillarda doston bo‘lgan. Ikkala ijodkor sirdosh bo‘lish bilan birga, ijodiy musobaqadosh ham bo‘ldi. Ikki o‘zga shaxs o‘rtasidagi rishtalikni ular ikki xalq orasidagi o‘zaro do‘stona munosabatlarda ko‘rdilar. Shuning uchun ham G‘afur G‘ulom o‘zining she‘rida:

Maqtanmayman, chin aytganda,
Bir chamalab qarayman,
Aytisuvda Sobit bilan
Tortishuvga yarayman.
O‘zbek elining dong qozongan
Manaday oqiniman,
Jon qozoqning oqinlarin
Do‘stim – yaqiniman [2:66].— degan edi.

She‘rda G‘afur G‘ulomning qardosh qozoq shoirlariga bo‘lgan samimiyati, hurmati balqib turadi. Bu borada Islom Karimov ta‘kidlaganidek: “Bizlar Buyuk Turon diyorida unib-o‘sgan ikki og‘a-ini xalqmiz. Tilimiz ham, dilimiz ham, dinimiz ham mushtarakdir” [3:233].

Darhaqiqat, Sobit Muqonov bilan G‘afur G‘ulom umrlarining so‘nggi damlarigacha sodiq do‘st bo‘lib qoldilar. Xalqaro anjumanlar, katta adabiy kechalar munosabati bilan tez-tez uchrashib, hamsuhbat bo‘lib, ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qildilar. Ikki hamkasb qadrdonning do‘stlik rishtalari bir-biriga uyg‘un bo‘lgan urf-odatlar va qadriyatlar bilan qo‘shilib ketdi. G‘afur G‘ulom ham, Sobit Muqonov ham adabiyotning ravnaqi va kamoloti yo‘lida astoydil qalam tebratib, o‘z va qo‘shni milliy adabiyotlarida o‘chmas iz qoldirdilar.

G‘afur G‘ulom o‘zining falsafiy lirikasi, poemalari, qissalari, yumoristik hikoyalari, feletonlari, ocherk va badiiy publitsistikasi bilan har ikki xalqning keng kitobxonlari orasida shuhrat qozongan bo‘lsa, Sobit Muqonov qozoq adabiyotiga XX asrning 20-yillarida kirib kelib, deyarli badiiy adabiyotning barcha janrlarida unutilmas asarlar yaratdi hamda milliy qadriyatlarini uyg‘unlashgan ikki buyuk xalqni ma‘nan yanada yaqinlashtirdi. Har ikkala ijodkor ham Markaziy Osiyo xalqlari milliy adabiyotining iftixori bo‘lib qoldi.

Ular bir-birini chin qalbdan ardoqlab, doimo hurmat bilan tilga olib, bir-birlarini g‘oyat e‘zozladilar. O‘zaro ijod durdonalarini ko‘zdan kechirib, bir-birining mahorat sirlarini o‘rgandilar va ijodiy tajriba almashdilar. Hatto, bir-birlarini tez-tez yo‘qlab, badiiy adabiyot haqida, har ikkala qardosh xalq do‘stligi to‘g‘risida keng va teran fikr yuritishdi. Shuning uchun ham Sobit Muqonovning umr yo‘ldoshi Maryam opa:

“G‘afur ikkalasining do‘stligi juda ham haqiqiy edi. U kishi kechasi Toshkentdan telefon qilib, yarim soat “aytishib olar edi”,

desa, yana bir boshqa o‘rinda:

“G‘afurning Sobitga yozgan she‘rlari hali ham papkasida yotibdi. Uning ustiga, Sobitning G‘afur haqidagi hikoyalari qancha” [4:69],

— degan edi.

Darhaqiqat, har ikkala qalam sohibining bir-biriga yozgan xatlarini, she'rlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda Sobit Muqonov bilan G'afur G'ulom orasidagi samimiy do'stlik tuyg'ulari va o'zaro birodarlik sirlarini kengroq anglash imkoniga musharraf bo'lamiz.

1963-yilda G'afur G'ulomning 60 yillik yubileyi nishonlandi. Sobit Muqonov do'stining yubileyiga qozoq xalqining milliy kiyimini hamda o'zi, G'afur G'ulom va Quvonchbek Malikovlarning Qozog'istonda ot minib tushgan fotosuratlarini taqdim qiladi. Hozirgi kunda bu ashyolar G'afur G'ulom uy-muzeyida DMG-5538 raqami ostida saqlanmoqda. Uy-muzeyda G'afur G'ulomning o'z qo'li bilan chizgan Sobit Muqonov va Muxtor Avezovlarga bag'ishlangan hazilomuz suratlari ham mavjud bo'lib, ular ijodkorlarning samimiy va beg'ubor do'stligidan darak beradi.

Shu bilan birga, uy-muzeyda Sobit Muqonovning "Tanlangan asarlar"i, "Sirdaryo" romani, "Ochiq yo'llarimiz" maqolalar to'plami ham caklanmoqda. Ushbu asarlarni adib do'stiga nashrdan chiqqach dastxat yozib sovg'a qilgan.

Ikki qadrdon do'st so'nggi bor 1966-yilning iyun oyida Qozon shahrida uchrashishadi. O'sha paytda tatar adabiyotining ulkan namoyondasi Abdulla To'qayning 80 yillik yubileyi o'tkazilayotgan edi. Har safar uchrashganlarida hazil-mutoyiba, askiya va she'rxonlik bilan bir-birlarining ko'nglini ko'tarib yuradigan ijodkorlarda bu safar qandaydir noxush kayfiyat, kamgaplik va xo'rsinish sezilar edi. Negadir bu holat G'afur G'ulomda ko'proq kuzatilar, chunki o'sha kezlari Toshkentda yer qimirlab, shahar vayron bo'lib, xalq aziyat chekmoqda edi.

Hamisha xalqning dardu-hasrati, qayg'u-quvonchi bilan hamnafas bo'lgan G'afur G'ulomga bu fojea qattiq ta'sir qilganini do'sti Sobit Muqonov fahmlab turar, uning ko'nglini ko'tarishga urinardi. Qozon shahrida yubiley tantanalari nihoyasiga yetgach, G'afur G'ulom bilan Sobit Muqonov aeroportda ma'yus xayrlashadilar. Bu uchrashuv ikki buyuk adibning so'nggi diydorlashuvi edi.

G'afur G'ulomning vafot etganini Olmaota shahriga kelib eshitgan Sobit Muqonov zudlik bilan Toshkentga, do'stini so'nggi manzilga kuzatish va u bilan vidolashish uchun yetib keladi. U dafn marosimida qatnashib, shoir do'stini o'z qo'li bilan qabrga qo'yadi. Xalqlarimizda shunday urf-odat borki, biror kishi vafot etganida uning eng yaqin kishilaridan biri marhumni qabrga qo'yadi. Shu o'rinda Sobit Muqonov ham G'afur G'ulomning eng yaqin do'sti va qadrdoni sifatida ushbu vazifani ado etdi.

Shuning uchun ham Sobit Muqonov:

"...men u bilan 35 yil do'st bo'ldim, ikkalamiz hamkasb, qadrdon edik",

— degan edi.

1966-yili G'afur G'ulomning dafn marosimida chuqur qayg'u bilan ko'ziga yosh olib, do'stining vafotidan qattiq ta'sirlangan Sobit Muqonov quyidagi misralarni bitadi:

Shuhrating ortaversin, qadrlı qalamkash do'st!

Arvohingga qulluq, abadiy yashaydigan shoir!... [5:288]

Sobit Muqonov ham abadiyatga rixlat qilganida esa ularning do'stona munosabatlaridan behad boxabar, uchrashuvlari va suhbatlarining guvohi bo'lgan yozuvchi Nosir Fozilov Toshkentdagi Chig'atoy qabristonidagi G'afur G'ulom qabri tuprog'idan bir siqim olib, Sobit Muqonovning qabriga sepish uchun Olmaotaga olib boradi.

"Ular qiyomatlik do'st edilar, tuproqlari ham qo'shilib ketsin..."

— degan unsiz nido bilan qozog'istonlik qariyalar va oqsoqollar kengashib, tuproq solingan xaltachani Sobit Muqonovning bosh tomoniga qo'yishadi. Bu voqea ikki buyuk ijodkor o'rtasidagi chin insoniy do'stlik, qardoshlik va ma'naviy yaqinlikning ramziy ifodasi sifatida tarixda muhrlanib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz». 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 288 b.
2. G'afur G'ulom. Asarlar. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1984. – 66 b.
3. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 233 b.
4. Seydanov Q. Do'stlik kuylari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 69 b.
5. Otashnafas shoir. – Toshkent: Fan, 1994. – 228 b.
6. G'afur G'ulom. Asarlar. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 74 b.
7. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 101 b.
8. G'afur G'ulom. Mukammal asarlar to'plami: 12 jildlik. 12-jild: Nutqlar, maktublar, qardosh tillarda yozilgan nutq va maqolalar. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1990. – 156 b.